

QASHQADARYO VOHASI DARYOLARI TARIXI

Jumma Buxorov Eshmamat o'g'li

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasidagi daryolarning tarixi, ularning o'z hududi uchun ahamiyati, sug'orilish tarixi, daryoning o'sha hudud uchun ahamiyati hamda vohadi daryolarning hozir va kelajakdagi holati, ularning ahamiyatini kelajak avlodga saqlab qolish haqida bayon etiladi

**Kalit so'zlar:** suv, global ahamiyat, suv iste'moli, qonunchilik hujjatlari, xo'jaligi ob'ektlari.

Kirish:

Asosiy daryosi - Qashqadaryo. Uning irmoqlari - Jinnidaryo, Oqsuv, Yakkabog'daryo, Tanxozdaryo, G'uzordaryo, Katta va Kichik O'radaryo (Dehqonobod) lar sanaladi. Daryolar muzliklar, qor va yomg'ir suvidan to'yinadi. Voha aholisi daryo suvidan, nafaqat yerlarni sug'orishda foydalaniladi, shu bilan birga ko'plab madaniyatlarning amalga oshirish obekti deb ham qarashadi.

Qashqadaryo (quyi oqimida Maymanoqdaryo) - Qashqadaryo vilo-yatidagi daryo. Havzasining maydoni 12 ming km<sup>2</sup>. Daryo Tojikistonning Sug'd viloyatidagi Hisor tizmasining g'arbiy tarmog'i bo'lgan Obixunda tog'larining shimoliy yon bag'ridan, Tovtosh dovonidan 1,5 km shimoli sharqda, 2 960 m balandlikdan boshlanadi. Daryo o'ng irmog'i O'rtabuloqning (Forob qishlog'i yonida) quyilishigacha Shinchasoy deb ataladi.

Yuqori oqimida baland plato bo'ylab chuqur vodiya oqadi. Daryo vodiysining bosh qismi ko'p joylarda tor. Vodiy yon bag'irlari ko'pincha tik, balandligi 50–120 m. Yarg'ak irmog'i qo'shilgandan so'ng vodiy bir oz (100–200 m) kengayadi. Shu yerdan daryoda qayir paydo bo'ladi (eni 100 m, Dug'oba qishlog'i). Chiroqchidan pastroqda Hazratibashir qishlog'idan boshlab daryo suvi ariq va kanallarga olinadi. Qashqadaryoga sersuv bir qancha irmoqlar: Jinnidaryo, Chiroqchidan 18 km yuqorida Oqsuv, Tanxozdaryo, G'uzordaryolar quyiladi. Bu irmoqlar yuqori oqimida chuqur va tor vodiya oqadigan tipik tog' daryolaridir<sup>1</sup>.

Muhokama:

Qashqadaryoning o'ng sohil tomonidan uncha baland bo'lmagan Qoratepa tog'ining janubiy yon bag'ridan 20 ga yaqin soy (Sho'robsoy, Makridsoy, Oyoqchisoy, Qalqamasoy va boshqalar) oqib tushadi. Tog'likdan tekislikka chiqqach, daryo vodiysi kengayadi. Shu yerdan daryo suvi butunlay sug'orishga olinadi. Qarshi cho'liga yetganda daryo tugaydi. Qor, yomg'ir suvlaridan to'yinadi. O'rtacha yillik suv sarfi Varganza qishlog'i yonida 14,1 m<sup>3</sup>/sek.dan (ko'p suvli yilda) 1,45 m<sup>3</sup>/sek.gacha (kam suvli yilda). Chiroqchi qishlog'i yonida yildagi eng ko'p suv sarfi 781 m<sup>3</sup>/sek. dan (ko'p suvli yilda) 21,4m<sup>3</sup>/sek.gacha (kam suvli yilda) bo'ladi.

Yillik oqimining 64% mart - iyun, 11,7% iyul - sentabr, 24-27% oktabr - fevral oylarida oqib o'tadi. Yillik eng ko'p suv sarfi ko'proq jala yomg'irlari hisobiga tez o'zgarib turadi. Shunga ko'ra, to'linsuv davri (fevral - iyul) sel tusini oladi. Daryo havzasidagi yerlarni suv bilan

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005. – B. 146.

ta'minlashni yaxshilash maqsadida Chimqo'rg'on suv ombori, Zarafshon daryosidan havzaga suv keltirish uchun Eski Anhor va Qarshi magistral kanallari qurilgan<sup>2</sup>.

Qashqadaryo Zarafshon daryosining irmog'i hisoblangan. To'rtlamchi davr boshlarida Qashqadaryo Sangzor bilan birga Zarafshon daryosida quyila boshlagan, Zarafshon daryosi esa sersuv bo'lib Amudaryoga quyila boshlagan.

To'rtlamchi davr o'rtalariga kelib esa Qashqadaryo janubga oqa boshlaydi hamda katta deltani hosil qiladi. Aynan to'rtlamchi davr o'rtalaridan beri Qashqadaryo hozirgi o'zanda oqayotganligi geologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan<sup>3</sup>.

G'uzordaryo-Qashqadaryoning uzun irmoqlaridan biri hisoblanadi, unga chap tomondan quyiladi. Uzunligi- 86 km. Havzasining maydoni 3170 km<sup>2</sup>. Suv yig'ilish maydonining o'rtacha balandligi 1532 m. Hisor tizmasining shimoli-g'arbiy yon bag'ridan boshlanadigan Katta O'radaryo va Kichik O'radaryolarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Tog'lardan oqib chiqqach, tekislikdan oqib Qashqadaryoga quyiladi.

O'rtacha yillik suv sarfi 5,9 m<sup>3</sup>/sekund. Eng ko'p suv sarfi 15,9 m<sup>3</sup>/sekund, eng kam suv sarfi 0,31 m<sup>3</sup>/sekund. Qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Eng ko'p suv sarfi aprelda (22,5%), eng kam suv sarfi sentabrda (3,6%) kuzatiladi. G'uzordaryoning yuqori qismida Pachkamar suv ombori barpo qilingan hamda daryodan irrigatsion kanallar chiqarilgan. Suvi, asosan, ekin maydonlarini sug'orishga sarf bo'ladi.

G'uzordaryo va uning irmoqlari hisoblangan Katta O'radaryo hamda Kichik O'radaryo bo'ylarida deyarli barcha qismlarida aholi manzilgohlari vujudga kelgan. Katta va Kichik O'radaryo bo'ylarida Dehqonobod tumani aholisining asosiy qismi, yashaydi. G'uzordaryo esa asosan G'uzor tumanini suv bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Qadimda G'uzordaryodan G'uzor tumanini sug'orish maqsadida qadimdan ko'plab kanallar chiqarilgan.

Daryo eng qadimiy aholi manzilgohlaridan hisoblanadi, ya'ni G'uzordaryoning irmoqlari hisoblangan Katta va Kichik O'radaryolari bo'yida qadimdan aoli yashab kelgan. Bundan tashqari bu daryolar Baqtriya olib boradigan yo'l ustida joylashganligi hamda yo'lovchilarga xizmat qiladigan har xil rabot va qo'rg'onlar barpo etilganligidan ham bilishimiz mumkin.

Yakkabog'daryo - (Irg'ayli, Sarito'qay, Qizildaryo) - Qashqadaryo havzasidagi sersuv daryolardan biri. Tanxozdaryoning chap irmog'i. Uzunligi 99 km. Havzasining maydoni 1180 km<sup>2</sup>, shu jumladan, suv to'plash maydoni 755 km<sup>2</sup>. Hisor tizmasining g'arbiy yon bag'ridagi muzlikdan 3949 m balandlikda boshlanadi. Yuqori oqimida Irg'ayli, keyinroq Sarito'qay, Qizildaryo nomlari bilan ma'lum. Yakkabog' qishlog'idan o'tgach, Yakkabog'daryo deb ataladi. Daryoning yuqori oqimida unga buloqlardan boshlangan ko'p sonli jilg'alar quyiladi. Asosiy irmoqlari: o'ngdan - Qaranko'ldoy, chapdan - Tirna daryolari hisoblanadi. Daryoning suvi bu qismida sug'orishga sarflanadi. Asosan, qor va muzliklar suvidan to'yinadi. O'rtacha ko'p yillik suv sarfi Tatar qishlog'i yonida (boshlanishidan 50 km masofada) 6,11 m<sup>3</sup>/sekund. O'rtacha yillik suv sarfi 12,6 m<sup>3</sup>/sekunddan (ko'p suvli yilda) 2,15 m<sup>3</sup>/sekundgacha (kam suvli yilda) o'zgaradi. To'linsuv davri mart - avgust oyida. Eng

<sup>2</sup> Baratov I. O'zbekistonning tabiiy geografiyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1996. - B. 84.

<sup>3</sup> Mamatqulov M. O'rta Osiyo daryolarining tentrashi, -Toshkent, 1987

ko'p sutkalik suv sarfi may - iyunda (ko'p suvli yilda 72,1 m<sup>3</sup>/sekund, kam suvli yilda 17 m<sup>3</sup>/sekund) kuzatiladi. Daryoning eng kam suv sarfi dekabr - mart oylarida bo'ladi<sup>4</sup>.

Oqsuv - Qashqadaryo viloyatidagi soy. Qashqadaryoning irmog'i. Hisor tizmasining g'arbiy yon bagridagi muzliklardan boshlanadi. Uzunligi 62 km. Suv yig'ilish maydoni 845 km<sup>2</sup>, o'rtacha balandligi 2444 m. Oqsuvga chapdan Dahansoy, Obikixona, Gelendaryo, Rabot, Sujar kabi irmoqlar, o'ngdan Shutsoy quyiladi. Oqsuv Chiroqchidan 18 km yuqorida Qashqadaryoga kuyiladi. Qormuzliklardan suv oladi. O'rtacha yillik suv sarfi 12,3 m<sup>3</sup>/sek. Eng ko'p suv sarfi iyun oyiga, eng kam suv sarfi dekabr - yanvarga to'g'ri keladi. Yillik suvining 49,2% mart - iyunda oqib o'tadi. Oqsuvning o'rtacha oqim moduli 14,6 l/sek, km<sup>2</sup>. Oqsuvdaryodan Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi tumanlarining ekinzorlari sug'oriladi.

Tanxozdaryo — Qashqadaryo viloyatidagi daryo. Hisor tizmasining g'arbiy yon bag'irlaridan, 3900 m balandlikdagi Kichikg'oz ko'lidan boshlanadi. Nushkent qishlog'i yaqinida Qashqadaryoga quyiladi. Uz. 93 km, havzasining maydoni 425 km<sup>2</sup>. Qariyb 70 km masofada tog'lar orasidan oqadi. Qor, yomg'ir, qisman muzliklardan to'yinadi. O'rtacha yillik suv sarfi 10,1 m<sup>3</sup>/sek.dan (ko'p suvli yilda) 1,67 m<sup>3</sup>/sek. gacha (kam suvli yilda) o'zgaradi. Martiyun oylarida sersuv bo'ladi, yoz o'rtalarida suvi kamayadi.

Jinnidaryo – Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi daryo, Qashqadaryoning chap irmog'i, boshlanishida Zo'g'atasoy deb ham nomlanadi. Zarafshon va Hisor tog' tizmalarini tutashiruvchi Shertog'-ning g'arbiy yon bag'irlari (2500 m)dan oqib tushuvchi 100 dan ortiq irmoqning qo'shilishidan hosil bo'ladi. G'arbiy yo'nalishda oqadi. Uzunligi 57 km, havzasining maydoni 367 km<sup>2</sup>.

Qor, yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinadi. O'rtacha yillik suv sarfi 1,35 m<sup>3</sup>/sekund (Jovuz qishlog'i yaqinida). Yillik oqimining 56% bahorgi to'linsuv davri (mart-iyun)da oqib o'tadi. Suv eng ko'p bo'ladigan oy - apreldagi o'rtacha suv sarfi 3,30 m<sup>3</sup>/sek ga yaqin. Jala yoqqan paytlarda Jinnidaryodan sel keladi, bu vaqtda suv sarfi sekundiga 46,2m<sup>3</sup> gacha (26.3.2022) ortadi.

Jinnidaryo asosan tog'li daryo bo'lganligi sababli uning bo'yida qadimda aholi manzilgohlari ancha kam edi, daryo bo'ylarida asosan qo'rg'onlar barpo etilgan ya'ni o'sha atrofda yashovchi badavlat kishilar o'rlarining yozgi qo'rg'onlarini barpo etishgan.

Viloyatdagi daryolar bo'yida asosan hudud aholisining manzilgohlari barpo bo'lgan shu sababli ham daryolarni tiriklik manbai sifatida e'zozlash qadimdan shakllanib kelgan.

Daryo bo'ylarida yashovchi aholi daryo toshganda, daryo suvi kamayganda unga atab turli xildagi marosimlar, qurbonliklar o'tkazishgan. Voha aholisi orasida daryolarning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini ularning hozirgi kundagi xo'jaligida ham bilishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005. – B. 146.
2. Baratov I. O'zbekistonning tabiiy geografiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 84.
3. Mamatqulov M. O'rta Osiyo daryolarining tentrashi, -Toshkent, 1987
4. Baratov I. O'zbekistonning tabiiy geografiyasi.... – B. 88.

<sup>4</sup> Baratov I. O'zbekistonning tabiiy geografiyasi.... – B. 88.